



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30
8	TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI <i>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</i>	31
9	SHAXSIY SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI <i>Isayeva Xolbib Boboqulovna</i>	34
10	TIBBIY SUG'URTANING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI <i>Yusupov Akbar Haydarovich</i>	39
11	MOL-MULK SUG'URTASIDA RISKLARNI BAHOLASH VA ANDERRAYTING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tuxtarova Maftuna Yo'ldashboy qizi</i>	44
12	TURAR-JOY KO'CHMAS MULKINI GEDONIK MODELLASHTIRISHDA FUNKSIONAL SHAKL TANLOVI <i>Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o'g'li</i>	49
13	HUDUDIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	54
14	MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDIALASH TIZIMI SAMARADORLIGI <i>Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich</i>	57
15	O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY-INSTITUTSIONAL TAHLILI VA NATIJADORLIK MODEL (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) <i>Xudayberganov Soxibnazar Kimyanazarovich</i>	62
16	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI <i>Norkulov Shavkat Shakarbayevich</i>	66
17	STRATEGIK MOLIYAVIY HISOB TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI, KO'RSATKICHLARI VA USULLARI <i>Umarova Shaxlo Abduvaliyevna</i>	70
18	OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI <i>Adizov Bobir Baxtiyorovich</i>	77



HUDUDYIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI

Salomov Abdusalom Ismatovich

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida mustaqil

Tadqiqotchisi

e-mail: abduosalom787salomov@mail.ru

ORCID:0009-0009-4557-7309

Annotatsiya: Maqolada hududiy infratuzilmani barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro "yashil" standartlar tizimining shakllanishi, funksional tarkibi va o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan. ISO 37101, ISO 37120, ISO 37122, ISO 37123, ISO 37124, ISO 37125, ISO 37151 va ISO 37153 standartlarining hududiy boshqaruv, infratuzilma xizmatlari, aqlli shahar, iqlimga chidamlilik, ESG va samaradorlik monitoringidagi o'rni tizimlashtirilgan. Xalqaro standartlarni «boshqaruv – indikator – aqllilik – chidamlilik – ESG – infratuzilma samaradorligi» zanjirida integratsiyalash asosida hududiy infratuzilmani baholashning kompleks yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: hududiy infratuzilma, "yashil" standartlar, ISO 37101, ISO 37120, aqlli shahar, chidamli infratuzilma, ESG, barqaror rivojlanish, resurs samaradorligi, infratuzilma indikatorlari.

Abstract: The article examines the formation, functional structure, and interrelationship of the system of international "green" standards for the sustainable development of territorial infrastructure. The role of ISO 37101, ISO 37120, ISO 37122, ISO 37123, ISO 37124, ISO 37125, ISO 37151, and ISO 37153 standards in territorial governance, infrastructure services, smart cities, climate resilience, ESG, and performance monitoring is systematized. Based on the integration of international standards into the chain of "governance – indicators – smartness – resilience – ESG – infrastructure efficiency", a comprehensive approach to assessing territorial infrastructure is proposed.

Keywords: territorial infrastructure, "green" standards, ISO 37101, ISO 37120, smart city, resilient infrastructure, ESG, sustainable development, resource efficiency, infrastructure indicators.

Абстрактный: В статье исследованы формирование, функциональная структура и взаимосвязь системы международных «зелёных» стандартов устойчивого развития территориальной инфраструктуры. Систематизирована роль стандартов ISO 37101, ISO 37120, ISO 37122, ISO 37123, ISO 37124, ISO 37125, ISO 37151 и ISO 37153 в территориальном управлении, инфраструктурных услугах, развитии умных городов, климатической устойчивости, ESG и мониторинге эффективности. На основе интеграции международных стандартов в цепочку «управление – индикаторы – интеллектуальность – устойчивость – ESG – эффективность инфраструктуры» предложен комплексный подход к оценке территориальной инфраструктуры.

Ключевые слова: территориальная инфраструктура, «зелёные» стандарты, ISO 37101, ISO 37120, умный город, устойчивая инфраструктура, ESG, устойчивое развитие, эффективность использования ресурсов, инфраструктурные индикаторы.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida infratuzilma rivojlanishining sifat mezonlari kapital qo'yilmalar hajmi va obyektlar sonidan resurs samaradorligi, iqlimga chidamlilik, raqamli boshqaruv, ekologik ta'sir va aholi hayot sifatiga ta'sirini kompleks baholash tomon o'zgarimoqda. Bu jarayon hududiy infratuzilmani rivojlantirishda yagona o'lchov va boshqaruv mezonlarini shakllantiruvchi xalqaro standartlarga talabni kuchaytirdi. Xususan, ISO/TC 268 doirasida barqaror shaharlar va jamoalar, aqlli infratuzilma, transport, ESG va chidamlilikni qamrab oluvchi o'zaro bog'liq standartlar tizimi shakllangan [1].

Xalqaro standartlashtirish amaliyotining muhim xususiyati shundaki, "yashil" infratuzilma faqat ekologik obyektlar majmui sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaralarni bir vaqtda ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. ISO 37101 barqaror rivojlanishni boshqarish tizimini belgilasa, ISO 37120 xizmatlar va hayot sifati ko'rsatkichlarini, ISO 37122 aqlli shahar indikatorlarini, ISO 37123 chidamlilik ko'rsatkichlarini, ISO 37125 esa ESG indikatorlarini tizimlashtiradi [2-6]. Shu sababli mazkur standartlarning funksional o'zaro bog'liqligini tadqiq etish hududiy infratuzilma siyosatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Barqaror infratuzilmaga oid zamonaviy ilmiy va uslubiy yondashuvlarda obyektning butun hayotiylik sikli, resurslardan foydalanish samaradorligi, tabiiy va iqlim risklariga moslashuvchanligi hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyati asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi. Jahon banki va World Resources Institute tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda "yashil" va an'anaviy "kulrang" infratuzilmani raqobatchi emas, balki rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq birlashtiriladigan yechimlar sifatida baholash taklif etiladi [7].

ISO 37101:2016 hududlar va shaharlarda barqaror rivojlanishni boshqarish tizimiga talablarni belgilab, barqarorlik, aqllilik va chidamlilikni yaxlit boshqaruv doirasida muvofiqlashtirishni nazarda tutadi [2]. ISO 37120:2018 esa shahar xizmatlari va hayot sifati ko'rsatkichlarini qiyosiy va verifikatsiyalanadigan shaklda o'lchash metodologiyasini belgilaydi [3]. Ushbu ikki standart o'rtasidagi bog'liqlik strategik boshqaruv maqsadlarini aniq indikatorlar orqali natijaga aylantirish imkonini beradi.

2019-yilda qabul qilingan ISO 37122 va ISO 37123 standartlari mazkur tizimni raqamli transformatsiya va chidamlilik mezonlari bilan kengaytirdi. ISO 37122 shahar xizmatlari va hayot sifatini tezkor yaxshilashga xizmat qiluvchi aqlli shahar indikatorlarini belgilasa [4], ISO 37123 tabiiy, texnologik va ijtimoiy xavflarga nisbatan shahar tizimlarining chidamliligini o'lchashga qaratilgan. 2024-yildagi ISO 37124 ushbu uch indikator standartidan birgalikda foydalanish bo'yicha

yo'riqnomaga berib, ularni yagona baholash arxitekturasiga birlashtirdi [5]. ISO 37125:2024 esa shaharlar uchun ekologik, ijtimoiy va boshqaruv indikatorlarini kiritib, infratuzilma natijadorligini ESG hisobdorligi bilan bog'ladi [6].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы / Methods).

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, funksional guruhlash, analiz va sintez, mantiqiy umumlashtirish hamda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. ISO/TC 268 standartlari hududiy infratuzilmani boshqarish funksiyalari bo'yicha guruhlanib, ularning strategik boshqaruv, natijalarni o'lchash, raqamlashtirish, chidamlilik, ESG va infratuzilma samaradorligini baholashdagi o'rni aniqlandi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli orqali xalqaro standartlarning asosiy tamoyillari, maqsadlari, indikatorlari va qo'llanish mexanizmlari o'rganildi. Strukturaviy-funksional tahlil asosida standartlarning hududiy boshqaruv tizimidagi o'zaro bog'liqligi va funksional vazifalari aniqlashtirildi.

Standartlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tasniflash usulidan foydalanilib, ular strategik boshqaruv, shahar xizmatlari sifati, aqlli texnologiyalar, iqlimiy xavflarga moslashuv, infratuzilma barqarorligi va ESG mezonlari bo'yicha guruhlandi. Indikatorli tahlil yordamida hududiy infratuzilmaning iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning mazmuni o'rganildi.

Tadqiqotda deduktiv va induktiv yondashuvlar orqali alohida standartlarda belgilangan talablar umumlashtirilib, ularning hududiy infratuzilmani kompleks baholashdagi umumiy metodologik asoslari shakllantirildi. Abstrakt-mantiqiy tahlil yordamida "boshqaruv – indikator – aqlilik – chidamlilik – ESG – infratuzilma samaradorligi" o'rtasidagi funksional bog'liqlik asoslandi. Shuningdek, benchmarking elementlari asosida xalqaro standartlarda qo'llaniladigan ilg'or yondashuvlarning hududiy infratuzilmani boshqarish amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Natijada xalqaro "yashil" standartlarni alohida hujjatlar sifatida emas, balki yagona integratsiyalashgan boshqaruv va baholash tizimi sifatida ko'rib chiqish imkonini beruvchi metodologik yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv hududlarning barqarorlik darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi, raqamli rivojlanish, iqlimiy chidamlilik va infratuzilma xizmatlari sifatini kompleks baholashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Xalqaro "yashil" standartlar tizimini tahlil qilish ularni alohida normativ hujjatlar yig'indisi emas, balki hududiy infratuzilmani boshqarishning ko'p bosqichli arxitekturasiga sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mazkur arxitekturaning birinchi pog'onasi strategik boshqaruvni, ikkinchi pog'onasi o'lchov va monitoringni, keyingi pog'onalari aqlilik, chidamlilik, ESG va infratuzilma samaradorligini qamrab oladi.

1-jadval ma'lumotlari xalqaro standartlar tizimida funksional mehnat taqsimoti mavjudligini ko'rsatadi. ISO 37101 "qanday boshqarish kerak?" degan savolga javob bersa, ISO 37120 "natijani qanday o'lchash kerak?", ISO 37122 "raqamli va aqlli rivojlanishni qanday baholash kerak?", ISO 37123 "risklarga chidamlilikni qanday o'lchash kerak?", ISO 37125 esa "ekologik, ijtimoiy va boshqaruv natijalarini qanday hisobdorlikka aylantirish kerak?" degan vazifalarni hal etadi. Shu tariqa standartlar o'zaro to'ldiruvchi xususiyat kasb etadi.

1-jadval
Hududiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha asosiy xalqaro "yashil" standartlar tizimi¹

Standart	Yo'nalish	Asosiy mazmun	Hududiy infratuzilma dagi vazifasi	Funksional natija
ISO 37101:2016	Boshqaruv	Barqaror rivojlanishni boshqarish tizimi	Strategiya, dastur va loyihalarni muvofiqlashtirish	Yaxlit institutsional boshqaruv

¹ Muallif ishlanmasi

ISO 37120:2018	Indikatorlar	Shahar xizmatlari va hayot sifati	Infratuzilma natijalarini qiyosiy o'lchash	Verifikatsiyalanadigan KPI
ISO 37122:2019	Aqlli shahar	Smart city indikatorlari	Raqamli texnologiya va ma'lumotlardan foydalanish	Boshqaruv tezkorligi
ISO 37123:2019	Chidamlilik	Resilient city indikatorlari	Risklarga tayyorlik va xizmat uzluksizligi	Iqlim va ofatlarga chidamlilik
ISO 37124:2024	Integratsiya	37120/37122/37123 ni birgalikda qo'llash	Ko'rsatkichlar tizimini muvofiqlashtirish	Kompleks baholash
ISO 37125:2024	ESG	Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv indikatorlari	Investitsiya va hisobdorlik profili	ESG shaffofligi
ISO 37151:2024	Smart infrastruktura	Infratuzilma samaradorligi metrikalari	Infratuzilma tizimlarini o'lchash	Texnik-iqtisodiy samaradorlik
ISO 37153:2024	Yetuklik modeli	Aqlli jamoa infratuzilmasi yetukligi	Bosqichma-bosqich takomillashtirish	Institutsional va texnologik yetuklik

ISO/TC 268 katalogi 2026-yil holatiga ko'ra mazkur tizimning yanada kengayib borayotganini ko'rsatadi. Jumladan, ISO 37100:2026 barqaror shaharlar va jamoalar uchun yangilangan atamalar tizimini, ISO 37116:2026 esa ofat risklarini kamaytirishga qaratilgan oldindan investitsiyalarni moliyalashtirish tamoyillarini qamrab oladi [1]. Bu holat xalqaro standartlashtirishning ekologik talablardan moliyalashtirish, risk va innovatsion boshqaruvga kengayib borayotganini anglatadi.

2-jadvalda taklif etilgan funksional muvofiqlashtirish standartlarning amaliy qiymatini oshiradi. Chunki hududiy boshqaruv organi barcha standartlarni bir vaqtning o'zida formal joriy etish o'rniga, infratuzilma siyosatining muayyan bosqichida tegishli standartdan foydalanadi. Natijada standartlashtirish xarajat emas, balki qaror qabul qilish sifatini oshiruvchi boshqaruv texnologiyasiga aylanadi.

2-jadval
Xalqaro "yashil" standartlarning hududiy infratuzilma boshqaruv bosqichlari bilan funksional muvofiqligi²

Boshqaruv bosqichi	Tavsiya etiladigan standart	Asosiy mezon	Axborot natijasi	Qaror qabul qilishdagi roli
Strategik rejalashtirish	ISO 37101	Barqarorlik maqsadlari	Ustuvor maqsadlar matritsasi	Hududiy strategiyani muvofiqlashtirish
Bazaviy diagnostika	ISO 37120	Xizmat va hayot sifati	Bazaviy KPllar	Muammoli sohalarni aniqlash
Raqamli modernizatsiya	ISO 37122	Aqlli shahar indikatorlari	Smart-infratuzilma profili	Raqamli investitsiya ustuvorligi
Risk boshqaruvi	ISO 37123	Chidamlilik	Risk va uzluksizlik profili	Moslashuv investitsiyalarini tanlash
Integral monitoring	ISO 37124	Kompleks indikatorlar	Yagona monitoring paneli	Standartlar natijasini birlashtirish
ESG hisobdorligi	ISO 37125	E-S-G indikatorlari	ESG profili	Investor va jamoatchilik hisobdorligi
Texnik samaradorlik	ISO 37151/37153	Metrika va yetuklik	Samaradorlik/yetuklik bahosi	Modernizatsiya bosqichini belgilash

² Muallif ishlanmasi

Xalqaro amaliyotda “yashil” infratuzilma standartlashtirishining yana bir muhim yo'nalishi tabiatga asoslangan va an'anaviy infratuzilma yechimlarini integratsiyalashdan iborat. Jahon banki va World Resources Institute yondashuvida yashil infratuzilmani texnik, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan “kulrang” infratuzilma bilan teng asosda baholash, rejalashtirish va dizayn bosqichida hayotiylik sikli xarajatlarini hisobga olish tavsiya etiladi [7]. Bu yondashuv hududiy infratuzilma rivojlanishida “yashil” standartlarni faqat binolar yoki energiya bilan cheklamasdan, suv, drenaj, transport, landshaft va tabiiy ekotizim xizmatlariga ham tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Taklif etilayotgan arxitekturaning ilmiy ahamiyati xalqaro standartlarni gorizontal ro'yxat sifatida emas, vertikal integratsiyalashgan baholash tizimi sifatida qarashdan iborat. Bunda institutsional boshqaruvdan boshlangan baholash natijaviy, texnologik, risk va ESG bloklari orqali infratuzilmaning yetuklik darajasigacha davom etadi. Shu asosda hududlar o'rtasida infratuzilmaning “yashillashuv” darajasini qiyosiy baholash, investitsion ustuvorliklarni belgilash va standartlarga moslashishning bosqichma-bosqich yo'l xaritasini ishlab chiqish mumkin.

3-jadval

Xalqaro “yashil” standartlar tizimini integratsiyalash asosida taklif etilayotgan hududiy infratuzilma baholash arxitekturasida³

Daraja	Standartlar bloki	Baholash obyekti	Yakuniy natija
I. Institutsional	ISO 37101	Boshqaruv tizimi va strategiya	Barqaror infratuzilma siyosati
II. Natijaviy	ISO 37120	Xizmatlar va hayot sifati	Bazaviy samaradorlik
III. Texnologik	ISO 37122, ISO 37151	Aqlli va samarali infratuzilma	Raqamli-texnologik samaradorlik
IV. Risk	ISO 37123	Chidamlilik va uzluksizlik	Riskka moslashuvchanlik
V. Integratsion	ISO 37124	Ko'rsatkichlarni birlashtirish	Kompleks monitoring
VI. ESG	ISO 37125	Ekologik, ijtimoiy, boshqaruv natijalari	Investitsion va jamoat hisobdorligi
VII. Yetuklik	ISO 37153	Infratuzilmaning rivojlanish bosqichi	Takomillashtirish trayektoriyasi

Xalqaro standartlar tizimining O'zbekiston hududlari uchun ahamiyati ularni to'g'ridan-to'g'ri mexanik ko'chirishda emas, balki milliy statistika, hududiy resurs cheklovlar va boshqaruv vakolatlariga adaptatsiya qilishda namoyon bo'ladi. Suv tanqis hududlarda suv samaradorligi va chidamlilik indikatorlari, yirik shaharlarda smart city va ESG mezonlari, sanoatlashgan hududlarda resurs samaradorligi va infratuzilma metrikalari ustuvor bo'lishi mumkin. Demak, xalqaro standartlar yagona metodologik “yadro”ni bersa, ularning indikator vaznlari va maqsadli chegaralari hudud xususiyatiga ko'ra differensiallashtirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari asosida hududiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha xalqaro “yashil” standartlar tizimini takomillashtirilgan holda qo'llash uchun quyidagi yo'nalishlarga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq:

- ISO 37101 standartini hududiy infratuzilma barqarorligini boshqarishning bazaviy institutsional standarti sifatida qabul qilib, ISO 37120-37125 indikatorlarini uning natijaviy monitoring bloki sifatida integratsiyalash;

- hududiy infratuzilmani baholashda «boshqaruv – xizmat sifati – aqllilik – chidamlilik – ESG – infratuzilma samaradorligi – yetuklik» ketma-ketligiga asoslangan ko'p darajali standartlar arxitekturasidan foydalanish;

- xalqaro standartlar indikatorlarini O'zbekiston hududlarining suv, energiya, urbanizatsiya, sanoatlashuv va iqlim risklari xususiyatlariga muvofiq differensiallashtirish;

- ISO 37124 asosida ISO 37120, ISO 37122 va ISO 37123 ko'rsatkichlarini yagona raqamli monitoring panelida birlashtirish va ularni hududiy investitsiya dasturlarini baholash bilan bog'lash;

- ISO 37125 ESG indikatorlarini infratuzilma loyihalarining investitsion profiliga kiritish orqali “yashil” moliyalashtirish va xalqaro investitsiya resurslariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;

- ISO 37151 va ISO 37153 asosida infratuzilmaning texnik samaradorligi va yetuklik darajasini muntazam baholab, modernizatsiya investitsiyalarini aniq natijaviy mezonlar bo'yicha ustuvorlashtirish.

Fikrimizcha, xalqaro “yashil” standartlarni mazkur integratsiyalashgan yondashuv asosida qo'llash hududiy infratuzilmani baholashda parchalangan ko'rsatkichlar tizimidan yagona metodologik platformaga o'tish imkonini beradi. Natijada infratuzilma rivojlanishining ekologik, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va institutsional natijalari o'zaro bog'langan holda baholanib, hududiy investitsiya qarorlarining asoslanganligi va barqarorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- ISO/TC 268. Sustainable cities and communities: Catalogue of published standards and standards under development. Geneva: International Organization for Standardization, 2026.
- ISO 37101:2016. Sustainable development in communities – Management system for sustainable development – Requirements with guidance for use. Geneva: ISO, 2016.
- ISO 37120:2018. Sustainable cities and communities – Indicators for city services and quality of life. Geneva: ISO, 2018.
- ISO 37122:2019. Sustainable cities and communities – Indicators for smart cities. Geneva: ISO, 2019.
- ISO 37124:2024. Sustainable cities and communities – Guidance on the use of ISO 37120, ISO 37122 and ISO 37123. Geneva: ISO, 2024.
- ISO 37125:2024. Sustainable cities and communities – Environmental, social and governance (ESG) indicators for cities. Geneva: ISO, 2024.
- Browder G., Ozment S., Rehberger Bescos I., Gartner T., Lange G.-M. Integrating Green and Gray: Creating Next Generation Infrastructure. Washington, DC: World Bank and World Resources Institute, 2019.
- ISO 37123:2019. Sustainable cities and communities – Indicators for resilient cities. Geneva: ISO, 2019.
- ISO 37151:2024. Smart community infrastructures – Principles and requirements for performance metrics. Geneva: ISO, 2024.
- ISO 37153:2024. Smart community infrastructures – Maturity model for assessment and improvement. Geneva: ISO, 2024.
- ISO 37100:2026. Sustainable cities and communities – Vocabulary. Geneva: ISO, 2026.
- ISO 37116:2026. Sustainable cities and communities – Disaster risk finance – Principles and general requirements for financing ex-ante investment in risk reduction. Geneva: ISO, 2026.

³ Muallif ishlanmasi